

**Buxoro muhandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti Falsafa fanlari doktori (PhD),
Murodov Sanjar taqrizi ostida**

Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
O‘zbekiston Milliy Universiteti doktoranti, O‘zbekiston
Email: shodiyevjahongir1985@gmail.com
ORCID ID: 0009-0001-6764-0745

**YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANSNI BARPO ETISH VA
INSON QADRINI OSHIRISHDAGI USTUVOR YO‘NALISHLAR**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Uchinchi Uyg‘onish davri tizimining yangilangan pedagogik g‘oyalari va ulardan o‘quv jarayonida foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari, pedagogik antropologiya masalalari muhokama qilinadi. Barkamol inson tushunchasi ma‘naviy barkamol inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ma‘naviy barkamollikka erishmay komil inson darajasiga yetish mumkin emasligi va inson qadrini oshirish ta‘lim va ta‘limni yanada oshirish ta‘lim etilgan.

Tayanch so‘zlar: Yangilanayotgan O‘zbekiston, uchinchi renessans, Uchinchi Uyg‘onish davri, inson qadri, ma‘naviyat, barkamol inson, ma‘naviy etuklik.

Аннотация: В статье рассматриваются обновленные педагогические идеи системы Третьего Возрождения и приоритеты их использования в образовательном процессе, вопросы педагогической антропологии. Представление о совершенном человеке согласуется с представлением о духовно совершенном человеке. Анализируется, что невозможно достичь уровня совершенного человека без достижения духовного совершенства и повышения ценности личности.

Ключевые слова: Обновляющийся Узбекистан, третий ренессанс, третий ренессанс, человеческие ценности, духовность, совершенный человек, духовная зрелость.

Abstract: This article discusses the updated pedagogical ideas of the Third Renaissance system and the priorities of their use in the educational process, issues of pedagogical anthropology. The concept of a perfect human being is consistent with the concept of a spiritually perfect person. It is analyzed that it is impossible to reach the level of a perfect person without achieving spiritual perfection and increasing the value of a person.

Key words: Renewing Uzbekistan, third renaissance, third renaissance, human value, spirituality, perfect person, spiritual maturity.

Bugungi kunda jahonda ta‘lim tizimini rivojlantirishning metodologik asosi sifatida pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalasi, ta‘lim-tarbiya sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar va o‘z yechimini kutayotgan muammolarni tadqiq etish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida mutaxassislar tayyorlashning ilg‘or jahon tajribasini o‘rganishga keng jalb etildi. Va, eng avvalo, bevosita O‘zbekistonning o‘zida yuqori sifatli ta‘lim uchun shart-sharoit yaratildi. X–XII va XIV–XVI asrlarda Movarounnahr madaniyati gullab-yashnagan davrda bu erdagi ko‘plab shaharlarda oliy o‘quv yurtlari bo‘lib, ilmiy markazlar hisoblanar edi. Hozirgi kunda ham bu qutlug‘ an‘ana qayta tiklanmoqda. Xalqimizning doimiy fazilati bo‘lgan haqiqatni bilish yo‘lidagi sabotni fan, texnika, texnologiya sohasida erishilgan jahon yutuqlarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilmoqda.

O‘zbekistonda mustaqillik davridagi pedagogika fanini yanada takomillashtirishga doir pedagogik qarashlarni, metodika masalalariga taalluqli ilg‘or fikrlarni o‘rganish, tahlil etish zaruriyati pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sifatida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishni taqozo etadi. Bugungi kunda jahonda ta‘lim tizimini rivojlantirishning metodologik asosi sifatida pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalasi, ta‘lim-tarbiya sohasida erishilgan ilg‘or tajribalar va o‘z echimini kutayotgan muammolarni tadqiq etish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ilg‘or tajribalar pedagogik fikrlarni yanada rivojlantirishga, ta‘lim va ta‘limni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Inson yechishi lozim bo'lgan barcha jumboqlarning eng muhimi, inson tabiati masalasini yechish, desak mubolag'a bo'lmaydi. Insonning asl mohiyatini anglash, rivojlanish va harakatlanish mexanizmlarini tushunib yetish pedagogikaning muhim muammosi bo'lib kelmoqda.

Insonning zamonaviy ta'limotlarning fundamental muammosiga aylanib borishi bilan ilmlarning pedagogik ahamiyati ham kengayib boraveradi. Insonni tadqiq etuvchi fanlar dialektik jarayonni insonning "yaxlit" bilimlarning to'laqonli egallanishiga bog'liqligi bilan tushuntirishga harakat qilinadi, inson-murakkab ijtimoiy-biologik tizimda mavjudligi hamda uning o'ziga xos individualligidir.

Shuningdek, psixologik va fiziologik yuklamalarni bajara oladigan, ma'naviy etuk, sog'lom, bolalarni tarbiyalash yo'llari va u haqida to'laqonli bilimga ega bo'lish ehtiyoji ham yuzaga kelmoqda.

Pedagogika, psixologiya, fiziologiya, ekologiya, pediatriya kabi alohida fanlar o'sib kelayotgan inson shaxsiga o'z nuqtai nazaridan yondashadi. Biroq, bu yaxlit tizimga keltirilmagan (integrastiyalanmagan) bilimlar yig'indisidan tahsil olishning mushkul masalalarini echishda foydalanish og'ir kechadi.

Pedagogik antropologiya uchun nafaqat insonning mavjudligi masalasi balki inson shaxsining shakllanishi va bu jarayon kechishining shart-sharoitlari ham muhim rol o'ynaydi. Inson yaxlitdir. Har qanday pedagogik ta'sir murakkab holat, fiziologik tuzilishga o'zgarishi emostional, axloqiy tayyorlikni kognitiv jarayonlar va shaxsning boshqa xarakteristikalarini o'zgarishiga olib keladi. Shunday ekan, pedagogik ta'sirning murakkab vaziyatlarni bilish va ta'lim jarayoniga yaxlit kompleks yondashuvni inobatga olgan holda ta'lim jarayonini rejalashtirish pedagogik mahoratning asosiy shartlaridan hisoblanadi.

Pedagogik antropologiya fanlar orasidagi mustaqil yo'nalish, tarbiyalanuvchi, tarbiya beruvchi, tarbiya oluvchi inson haqidagi yaxlit va sistemali bilimlar aspektida turli xil bilimlarni umumlashtiradi. U pedagogika nazariyasi va amaliyotining asosi, tarbiya xaqidagi fanlar metodologiyasi, pedagogikaning o'ziga xos o'zagi sifatida interpretastiyalanadi.

Pedagogik antropologiya inson tabiatini barcha ko'rinishlarda tarbiyalash san'atining maxsus layoqatlari bilan o'rganadi (K.D.Ushinskiy); tabiat haqidagi pedagogik sur'atlangan (interpretastiyalangan) bilimlar va shaxs va jamiyat ko'nikmalari rivojlanishining mohiyatini aks etiradi (B.M.Bim-Bad); falsafiy oqim; yaxlit va har tamonlama ko'rilgan tarbiyani yarata oladi (V.B.Kulikov); ta'lim sohasidagi inson haqidagi fan, tarbiyaviy tuzilishini anglashga ko'maklashuvchi falsafiy tarbiya zahirasi, shuningdek, insonni o'rganuvchi fanlarga asoslangan pedagogik qarashlar sistemasi sifatida qarash rivojlandi.

Zamonaviy tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, pedagogik antropologiya tarbiya jarayoniga tizimli qarashning mavjudligi, balki insonni tarbiya jarayonining faol sub'ekti sifatida qabul qilish zarur, boshqa tomondan: tarbiya jarayonining insonga dialektik yaxlitlikdagi tarbiyaviy ta'siri analizi, ikkinchi tomondan esa o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirishdir.

Ta'lim va tarbiya jarayonini maksimal darajada san'at darajasiga ko'tarishga intilib, ijod maxsuli sifatida qarash kuchaymoqda. Oldindan topshirilgan, mavjud ta'limning universal modeli, qanchalik rastional tahlil qilinmasin inkor etilmoqda. Bunday pedagogika shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni maksimal darajada hisobga olib, ulardan imkon qadar foydalanishni, tarbiyalanuvchi va ta'lim oluvchi sub'ekt qarshiligini bartaraf etish yo'llarini, uning ichki olamiga kira olishni va uning takomillashuvi va rivoji uchun imkoniyatlarning barchasidan oqilona foydalanishga intilmoqda. Zamonaviy pedagogikaning terminologiyasida "olam", "hayot", "mavjudlik", "qalb", "ruh", "hayot mazmuni" hayot bilan bog'liqlik kabi tushunchalar tobora kirib kelmoqda.

Soha rivojlanish bosqichiga quyidagi prinstitplarni kiritish mumkin:

- antropologik, inson tushunchasini boshlang'ich kategoriya, qolganlarini esa boshlang'ichdan kelib chiquvchi, tushunchani chuqurlashtiruvchi va ta'rif etuvchi deb oladi;

- insonning yaxlitligi va o'ziga xosligi;

- ontologik tarbiyani inson modusi (usul, ko‘rinish), “tarbiya” tushunchasini esa ontologik kategoriya sifatida taqozo etishini talab etadi;

- inson malakasidagi umumiylik, o‘zgachilik u ikkilikning birligi;

- insonning cheksiz ekanligi, o‘lchab bo‘lmasligi, o‘rganilib bo‘linmaganligi pedagogik ta‘sir natijalarining to‘liq aniqlab bo‘linmaganligi;

- inson hayotining borishida asosiy sabab qilib bolalik davri kechinmalarini hisoblash;

- tarbiya mexanizmi sifatida insonning o‘z-o‘zini tarbiyalashga bo‘lgan layoqatini tan olish;

- kreativlik, pedagogik shakl va metodlarning faqatgina tarbiyalanuvchini o‘z-o‘zini shakllantirishga ijodiy yondashuvga sharoit yaratib bera oladiganlarini tanlashni talab etadi;

- dialogik xarakterga ega bo‘lgan tarbiyaning vosita, metod va shakllarini qo‘llashni nazarda tutadi, bunda tarbiyalanuvchiligi, tarbiya beruvchi bilan tarbiya olami va o‘z-o‘zi bilan muloqot qurishda o‘z-o‘zini shakllantirishning erkin diaologik shaklini taqdim etadi;

- o‘z-o‘zini anglash-pedagogik metod, vosita, tashkillashtirish shakllariga-o‘z-o‘zini anglash metod va vositalariga aylanish imkonini beruvchi talablar;

- o‘z-o‘zini namoyish etish erkinligi;

- ta‘lim jarayonida o‘z-o‘zini erkin namoyish etish o‘z-o‘zini shaxs sifatida shakllantirish;

- tushunish va o‘zaro tushunishni har qanday pedagogik metod, shakl va vositalarning insonparvarlik va samaradorlik yo‘lidagi zaruriy shart-sharoit sifatida qabul qilish.

Jahon ilmiy tadqiqotlarida pedagogik antropologiya ilmiy faoliyat olib borishning o‘zaro hamkorlikda qator afzalliklarini ko‘rsatmoqda. Shuning bilan bir qatorda tarixiy-taqqoslash tadqiqotlarining mustahkam asosida pedagogik antropologiya o‘zi uchun milliy an‘analar, ajdodlar orttirgan malakasidan unumli foydalanish uchun o‘ziga yo‘l ochmoqda.

Integrastiya metodi “neantropologik” pedagogik, shu jumladan, an‘anaviy pedagogikaning tabiiy fanlar paradigmasi ma‘lumotlariga asoslangan. Bu metod insonning mavjudot xarakteristikasi tomonidan turib pedagogik jarayon komponentlari (tarkibi)ni tadqiq etishdan iborat. Sintezni pedagogik antropologiya germeneytika (interpretastiya) yordamida amalga oshiradi. Interpretastiya etish biron-bir masala yoki hodisaning tub mazmun-mohiyatini ochib berish demakdir. Pedagogik ta‘bir uchun biron-bir hodisa yoki jarayonning pedagogika uchun qay jihati bilan ahamiyatli ekanini yoritib berishdan iborat. Interpretator ishida eng katta yordamchi rolda semiopika chiqadi. Bu ta‘limot turli xil belgi va ularning ahamiyatini o‘rganuvchi sohadir.

Pedagogikada bu ta‘limot madaniyat hodisalarining simptomlari (xossalari) va ularga xos birikmalar, belgilar to‘g‘risida fikr yuritadi. Idenfikastiya metodi falsafiy tomondan ijtimoiy ongda (san‘at, falsafa, mantiq) boshqa insonshunoslik ma‘lumotlari va shakllari aprotastiyadan o‘tgan ilmlarni va tarbiya metodlarini ajratib olish uchun xizmat qiladi. Pedagogik antropologiya keng miqyosda: analiz, sintez, taqqoslash, o‘xshatish, indukstiya, dedukstiya va boshqalar qo‘llaniladi. Barcha metodlar kompleks tarzda qo‘llaniladi. Yuqorida sanab o‘tilgan metodlarning asosiy vazifasi insonshunoslikni pedagogik sintezlashdan iborat. Biografik (avtobiografik) kundalik, ijod mahsuli, introspektstiyalarni o‘rganish, xotirani analiz qilish (tahlil etish). Pedagogik antropologiyada shaxs rivojlanishini ijtimoiy tarix bilan yaxlit o‘rganadi.

Fillant yondashuv uchun tasviriy metodning ahamiyati katta, bunda bu metodning bolalik va ta‘lim tarbiyaga oid san‘at asarlarini interpretastiya (tahlili) etish qo‘l keladi.

Kazusli metod (alohida holatlarni o'rganish) tipik va tipik bo'lmagan aniq taqdirlar, xarakterlar, pedagogik xolatlarni tadqiq etishda muhimdir. Alohida holatlarni ko'rib chiqish ularning pedagogik antropologiya prinstiplari bilan bog'liqlikda amalga oshiriladi.

Bevosita o'rganishda kuzatuvlar (oilaviy, yakka, so'rovnoma va ularsiz ham) alohida ahamiyat kasb etadi. Xarakteristka va psixogrammalarni tuzish ham keng qo'llanadi. Pedagogik antropologiya eksperimental tadqiqotlari innovastion loyihalar bilan uzviy aloqada ish ko'radi. Ular orasida keng ommalashgani ta'limning modernizastiyalashgan tarkibli modeli, tarbiyalovchi va ko'nikma hosil qiluvchi modeli hamda og'ishgan xulqni oldini olish va korrekstiyalash tizimlari kabilardir.

Odam bolasiga beriladigan tarbiya, birinchi navbatda, ilmga, fanga asoslanmog'i, ta'limiy jihatdan to'g'ri tashkil etilmog'i lozim. Agar tarbiya pala-partish holda savodsizlarcha tashkil etilsa, tizimli va muntazam ravishda olib borilmasa, bunday «tarbiya» inson kelajagiga, shaxsning shakllanishiga faqat zarar keltiradi. Mana shu qoidalarga amal qilingandagina ta'lim-tarbiya o'zining pirovard maqsadiga erishishi - komil insonni voyaga yetkazishi mumkin.

Komil inson deganda biz ozod shaxsni, erkin fikr yurituvchi Vatani halol va sadoqatli xizmat qiluvchi kishini tushunamiz. Va aksincha, agar inson birovga quldek ergashsa, o'zining mustaqil fikriga ega bo'lmasa yoki uni himoya qila olmasa, mutelik va boqimandalik asoratiga tushadi. Bunday kishining Vatani, xalqi manfaatlariga yot, zararli g'oyalarni tarqatayotgan kimsalar ortidan ergashib ketishi ham hech gap emas.

Mamlakatimizda yoshlarining ijtimoiy harakati dastlab «Kamolot» nomi bilan, litsey va kollejlarda o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan sport musobaqalari esa «Barkamol avlod» nomi bilan ataldi. Yoshlarimizga hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashadigan tashkilotga yoki o'sib kelayotgan bolalarni jismonan baquvvat bo'lishga rag'batlantiradigan sport bellashuviga bunday nomlar berilishi bejiz emas, albatta. Bunda yoshlarni har jihatdan komillikka intiluvchan bo'lishi nazarda tutilgan. Shu jismoniy va ma'naviy barkamollik o'zaro bog'liq holda rivojlanmog'i darkor.

Jismoniy barkamollikka erishmasdan turib, chinakam ma'naviy barkamollikka, ma'naviy barkamollikka erishmasdan turib esa yetuk jismoniy barkamollikka erishib bo'lmaydi.

Komillikka erishishning muhim sharti-bilimdonlik hisoblanadi. Albatta, ma'naviy barkamollikka erishishning boshqa shartlari ham ko'p. Masalan, axloq-odobli bo'lish, mehnatsevarlik, yurtga sadoqat mehr, go'zallikka oshno tutinish va hokazo. Lekin bularning barchasining negizida o'rganish, bilish va anglash talabi yotgani tufayli insonlar ma'naviy kamol topishida bilimdonlik, ma'rifat katta o'rin tutadi. Masalan, hayotdagi eng oddiy so'zlar va ishlarni ham kim qachondir hijjalab, erinmay o'rgatgan. Ota-onamiz dastlab nimani qanday atash, kiyimni qanday kiyish, hatto taomni qanday yeyishgacha o'rgatgan. Ya'ni, bizning butun hayotimiz o'rganishga, bilishga asoslangan. Agar siz-u bizga endi oddiy tuyuladigan ana shu narsalarni kimdir vaqtida o'rgatmasa yoki kimlardandir ko'rib o'zimiz o'rganmas ekanmiz, bizning boshqa jonzotlardan farqimiz qolmas edi. Demak, bilimdonlik ma'naviy barkamollikning asosi, uning muhim mezonini ekan. Inson tabiatan bilishga chanqoq. Chunki u doimiy izlanishdagi ong tafakkurga ega. U nafaqat jismi, balki ongi va tafakkuri orqali hayotda o'sish va kamol topishga intiladi. Hayvonlarda esa butunlay boshqacha. Ular nafs qayoqqa boshlasa, o'sha yoqqa ketaveradi. Nafsi qonsa, bu intilishi ham tugaydi, yotib dam oladi. Ularga bilishning qizig'i yo'q. Chunki ularda bilishga ehtiyojning o'zi yo'q. Odamzod ming yillar davomida uchar gilamlarni, oynayi jahon, ochil dasturxonlarni orzu qilib kelgan. Nihoyat, u aqli va tafakkuriga tayanib samolyotni, televizor va radioni, turli ne'matlarni tayyorlab beradigan fabrika va sexlarni kashf etdi. Lekin shu bilan kifoyalanib qolgan yo'q. Samolyotdan ham tez uchadigan raketalar, yillar davomida koinotda o'zi kezib yuradigan sun'iy yo'ldoshlar, simsiz ulanadigan va ko'rsatadigan telefon apparatlari, butun Yer yuzidagi odamlar ong-u shuurini axborot o'rab-chirmab olishni maqsad qilgan Internet («Butun dunyo o'rgimchak to'ri») tizimini yaratdi. Endilikda inson Yerdagi hayot bilan kifoyalanmay, boshqa sayyoralarga, hatto boshqa galaktikalarga ham sayohat qilmoqning, odam miyasidagi o'y-fikrlarni o'qimoqning ham harakatiga tushgan. Barcha bu orzu va intilishlarni inkor etmagan holda, bir muhim haqiqatdan ogoh bo'lish ayni shu insoniyatning o'zidan talab etiladi. Ya'ni, barcha ilmiy-texnikaviy kashfiyotlar va yutuqlarni ezgulikka, yaxshilikka, insoniyat baxt-u saodatiga xizmat qilishini ta'minlash lozim.

Barkamol inson tushunchasi ma'naviy barkamol inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ma'naviy barkamollikka erishmay komil inson darajasiga yetish mumkin emas. Demak, ma'naviy barkamollikka intilish - bu komil inson darajasiga erishish uchun intilishdir. Komillikka inson butun umri davomida erishib boradi. Uchala tushuncha: sog'lom avlod, ma'naviy barkamol, komil inson - darajama-daraja chuqur ma'no kasb etadi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, komil inson bo'lishning aniq cheki va chegarasi yo'q. Bizning ko'hna tariximizda yuzaga kelgan, xalq, mamlakat tarixida katta ma'naviy-axloqiy tarbiya rolini o'ynagan tasavvuf komil inson nazariyasi haqidagi, uni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqidagi ta'limot va amaliyot sanaladi. Mazkur savolni tasavvuf ta'limotidan kelib chiqqan holda bayon etishni maqsadga muvofiq deb topdik. Barkamol inson biz uchun idealdir. U barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutlaq ruhga tutash, fayzu karomati serob, qalbi ezgu tuyg'ularga limmo-lim to'la pokiza zot. Komil inson odamzod orzu qilgan jamiki ezgu xislatlarning ifodachisi. Komil insonlar jamiyatning tirik vijdonlaridir. Kishilar ularga qarab hushyor tortadilar, dunyo behudaligidan o'zlariga kelib, o'z qalblariga, o'z qilayotgan ishlariga razm soladilar, tavba-tazarru qiladilar.

Komil inson haqida tasavvuf adabiyotida ko'p asarlar bitilgan. Ana shunday kishilardan biri XIII asrda yashagan Aziziddin Nasafiy bo'lib, «Insoni komil» nomli risolasida komil insonga ta'rif berib shunday yozadi: «Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolatga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif». Bu sifatlar bilan ziynatlangan odam yolg'on, riyo va badkirdorlikdan chekinadi, hamma vaqt ezgu niyat bilan yashab, ezgu ishlarga tayyor turadi. Yaxshi sifatlarni egallab borgan odam komil inson martabasiga ko'tarila oladi. Komil inson - insonlarning eng mukammali, eng oqili va donosi. Komil inson insonlar jamiyati ichidan yetishib chiqadigan mo'tabar zotdir. Insonlar komillikka axloqiy-ma'naviy poklanish jarayonida erishadilar.

Komillikning belgisi haq yo'lidan borib, xalqqa foyda keltirishdir. Kishi o'z so'zi, amaliy ishlari, niyati bilan qanchalik odamlarga foyda keltirsa, yomonlarni to'g'ri yo'lga solsa, haq yo'lida fido bo'lsa, u shuncha komil bo'ladi. Komil, barkamol insonni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida musulmon Sharqi axloqi tarixida inson hayoti uchun dasturulamal, qo'llanma vazifasini o'tagan ko'p pandnomalar, xalq kitoblari mavjud bo'lgan. Shulardan ba'zilarini sanab o'tamiz. Chunonchi, Kaykovusning «Qobusnoma», Sa'diyning «Guliston», «Bo'ston», Amir Temurning «Temur tuzuklari», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbubul-qulub», Husayn Voiz Koshifiyning «Axloqi muhsiniy» va boshqalarni ko'rsatishimiz mumkin. Bu asarlarning ko'pchiligida odil shoh va adolat, halollik, soflik, poklik, to'g'rilik, rostgo'ylik, insonparvarlik, ma'rifatli bo'lish kabi insonning sharqona fazilatlarini berilgan. Alisher Navoiyning «Nasoyimul muhabbat» asarida komil insonga xos xususiyatlar, uning sharqona fazilatlarini sanab o'tilgan. Bular qatoriga ulug' mutafakkir quyidagilarni kiritadi: tavba, halol luqma bilan qanoatlanish, o'z kasbidan topib kun o'tkazish, shariatga rioya etish, barchadan o'zini kam deb bilish, hatto farzandlari, xizmatkorlariga qo'pollik qilmaslik, chuchuk tilli bo'lish - yaxshi, muloyim tilli bo'lish, rahmdil bo'lish, saxiy bo'lish, mard bo'lish, halimlik, xushxulq bo'lish, rizo-rozilik bilan kun o'tkazish, sabrli bo'lish, sadoqatli, vafoli bo'lish, riyozat chekishdan qo'rqmaslik va boshqalar.

Shu tariqa o'tmishda, komil insonning o'ziga xos axloq kodeksi ishlab chiqilgan bo'lib, bu sifatlarga ega bo'lish har bir odamning orzu-armoni deb qaralgan. Komil inson haqidagi g'oyalar katta ijtimoiy-axloqiy ahamiyatga ega bo'lgan. U insonni sharaflil, ezgulik va buyuk xayr ruhida tarbiyalash, mehru muhabbat, vafu va sadoqatni kuchaytirishga xizmat qilib keldi. Har zamon, har lahzada insonlarga ularning insonligini eslatib, yovuz, qabih ishlar, nojo'ya xatti-harakat va qiliqlardan saqlanishga ko'maklashdi, ularda iymon va vijdon binosining paydo bo'lishini ta'minlaydi.

Komil inson iymon va e'tiqodlilik, halollik va poklikning oliy timsoli. Biz hammamiz shunga intilib yashamog'imiz lozim. Uning shakllanganligi darajasini xarakterlovchi eng muhim fazilatlar esa quyidagilardir: aqliy zukkolik, huquqiy komillik, axloqiy yetuklik, siyosiy teranlik, mehnatga halol munosabat, yuksak madaniy, ma'naviy saviya, professional iftixor, milliy va umuminsoniy g'urur va boshqalar.

Yuqoridagilarni hozirgi mustaqil hayotimiz, turmush tarzimiz, kishilarning, ayniqsa, yoshlarning intilishlari bilan bog'lab komil inson chizgilariga quyidagi xislat va fazilatlar kirishini umumiy tarzda bayon etishimiz mumkin:

Komil insonning umumiy xislatlari: yoqimlilik, ko'rkamlik, jozibadorlik, salobatlilik, hurmatga sazovorlik, shoironalik, ulug'sifatlik, o'ziga xoslik, yetuklik, jiddiylik, madaniyatlilik, tarbiyalanganlik va boshqalar;

Komil insonning axloqiy fazilatlarini: insonparvarlik, do'stlik, g'amxo'rlik, jonkuyarlik, samimiylik, odamiylik, bolajonlik, iymonlilik, fidokorlik, xushmuomalalik, boadablik, iltifotlilik, kechirimlilik, mehmondo'stlik, halollik, to'g'rilik, diyonatlilik, haromdan hazar etish, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va hokozolar;

Ishbilarmonlik xislatlari: ishchanlik, tirishqoqlik, serharakatlilik, mas'uliyatlilik, insoflilik, halollik, malakalilik, epcillik, uddaburonlik, saranjom-sarishtalik, tadbirkorlik, aniqlik, tejamkorlik, barkamollik, ta'masizlik, tavakkalchilik va boshqalar;

Zukkolik, idroklilik fazilatlarini: zehnlilik, bama'nilik, xotirjamlik, sog'lom fikrlilik, donishmandlik, sezgirlik, zakovatlilik, topqirlik, notiqlik, tanqidiylik, dadillik, omilkorlik, savodxonlik, qiziquvchanlik, ishqibozlik kabilar;

Sobitlik xislatlarini: faollik, qat'iyatlilik, tezkorlik, jo'shqinlik, sabotlilik, bir so'zda turishlik, barqarorlik, botirlik, dovyuraklik, intizomlilik, jiddiylik, nafsni tiyishlik, o'zini yo'qotmaslik, sovuqqonlik, o'ziga talabchanlik, kamsuqumlik, o'zini o'zi idora eta bilish va boshqalar. Ehtiroslilik xislatlarini: ko'tarinkilik, tantanavorlik, kulib turuvchanlik, xazinlik, kelajakka ishonch, ezgulik, kek saqlamaslik, olijanoblik, otashinlik, nozik tabiatlilik, hayolilik, iffatlilik va hokozolar. Bizningcha, ayni shu xislat va fazilatlarini yoshlarimiz ongiga singdira borilishi ularni barkamol, sog'lom va komil inson ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik ruhida yangicha fikrlaydigan fozil, komil inson, eng avvalo, fuqarolik burchini a'lo darajada his etadigan shaxs bo'lishi darkor. Sodda qilib aytganda, har qaysi komil inson, har birimiz: «Shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi?» deb emas, balki: «Men o'zim Vatanimga, elu yurtimga nima berdim?» deb o'ylashimiz va har dam shu aqida bilan yashashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
3. Жўраев Т. Миллий давлатчилик: Хавфсизлик ва барқарорлик. –Тошкент: Академия, 2007.
4. Инсани камил. // Исламский энциклопедический словарь. / Авт.: А. Ализаде. Москва: 2007.
5. Шодиев, Ж. Ж. Мамлакатимизда инсон кадрини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. Қарду хабарлари. Илмий-назарий, услубий журнал. Махсус сон (Ижтимоий фанлар).
6. Jurakulovich, S. J. (2022). ATTITUDE TO HUMAN DIGNITY IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS DYNASTY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 43-47.